



SUV HAYOTNING ASOSI SANALUVCHI VOSITA

Boynazarova Mohinur Avazbek qizi

Qurolova Feruza Rasul qizi

Farg'ona davlat universiteti Ekologiya va atrof muhit muhofazasi yonalishi talabalari

Anotatsiya: *Suvning mavjud bo'lishi hayot uchun o'ta muhimligi ravshan narsa Qur'oni Karimning ko'plab oyatlarida Alloh taolo O'zi uning buyuk marhamati bilan odamlarga tuhfa qilingan suv barcha tirik jonzod uchun zarurligini eslatib o'tadi.*

Annotation: *It is clear that the presence of water is very important for life. In many verses of the Holy Qur'an, Allah mentions that water, gifted to people by His great mercy, is necessary for all living beings.*

Аннотация: *Понятно, что наличие воды очень важно для жизни. Во многих аятах Священного Корана Аллах упоминает, что вода, подаренная людям по Его великой милости, необходима для всех живых существ.*

Kalit sózlar: *suvning qattiqligi, suvning muzlashi, issuqlik, iqlim, harorat, substansiya, fiziqli qonunlar, kimyoviy moddalar.*

Key words: *hardness of water, freezing of water, heat, climate, temperature, substance, physical laws, chemical substances.*

Ключевые слова: *жесткость воды, замерзание воды, теплота, климат, температура, вещество, физические законы, химические вещества.*

Suv hayotning asosiy bo'lishi uchun yaratilgan subistansiyadir. Uning har bir fizik va kimyoviy xususiyati hayot uchun yaratilgan. Keling biz uchun odatiy bo'lgan suvning ajoyib xususiyatlarini ko'rib chiqaylik.

Barchaga ma'lumki qattiq jismlar va suyuqliklar sovutilganda ularning hajmi qisqaradi. Hajminkamayganda zichlik ortida va yanada sovuq tomonlar og'irroq bo'lib qoladi. Shuning uchun qattiq shaklda bo'lgan holatda moddalar hajmga ko'ra suyuq shakldagidan og'irroq bo'ladi. Faqat bu holatda biz suv bilan ish tutganimizda ushbu qonuni buziladi. Boshqa suyuqliklar kabi suv ko'pi bilan to'rt darajagacha sovutilganda uning hajmi kamayadi.

Suvning harorati bundan ortiq pasanganda boshqa barcha ma'lum suyuqliklardan farqli o'laroq u birdaniga kengaya boshlaydi va muzlaganda yana qattiq holatga kelganda u yana kengayadi. Shuning uchun qattiq suv suyuq suvdan yengilroq bo'ladi. Fizika qonunlariga kora qattiq suv ya'ni suyuq suvdan og'irroq bolishi va undan chokib ketish kerak. Lekin muz suvda suzadi. Bu esa juda ham katta ahamiyatga ega. Dunyoda qishda harorat 0 darajadan va ba'zan undan haman ancha pastga tushadigan joylar kop. Harorat 0 darajadan pasgach suvning sirti muzlaydi. Muzlagan sirtning tagiga suv harorati 4 daraja



illiqni tashkil etadi, bu esa baliqlar va suv havzalarida yashovchi boshqa jonzotlarning normal hayot kechirishi uchun yetarlidir. Muz atmosferadagi sovuqni suvning ichki qatlamlariga deyarli otkazmaydi. Shunday qilib agar havoning harorati 50 daraja sovuqni tashkil qilsa ham suvdagi muzning qalinligi 1-2 metrdan oshmaydi. Shunday ekan tuylen, oqayiq va qutbning boshqa jonzotlari ummon sirtdagi muzni yorib qiyinchiliksiz suvga yetib borib o'zlari uchun ozuqa topa oladilar.

Agar suv o'zini normal ravishda ya'ni boshqa barcha suyuqliklardek tutganda nima bo'lar edi? Harorat pasayganda suvning og'irligi ortib, muz suvning tubigacha choka boshlardi. Bu xolda ummon va dengizlarning muzlash jarayoni tubdan boshlanib. Yuqoriga qarab chiqib borar edi, chunki issiqlikni ushlab turuvchi muz qatlami bolmas ed., Boshqacha qilib aytganda yerdagi dengiz, kollarning ko'pchiligi ustida faqat bir necha metr qalinlikdagi suvqatlami bolgan myz palaxsasiga aylanardi. Havo harorati ko'tarilganda ham undagi myz toliq erimas va tabiiyki unda hayot bolmas edi. O'lik dengizni ekologik tizimida ham suvda ham quruqlikda yashovchi jonzotlarning hayoti ham mavjud bo'la olmas edi. Boshqa so'z bilan aytganda agar suv o'zining normal ravishda ya'ni boshqa suyuqliklar kabi fizik qonunlarga muvofiq tutganda yer o'lik sayyora bo'lar edi. Lekin yaratuvchining marhamati va uning mukammal g'oyasi tufayli yer hayotning barcha shakl va turlari bilan to'la.

Muhokama

Suvning termal xususiyatlari yerda issiqlik va uygun iqlim shakllanishda bosh rolni oynaydi. Suvning o'ziga xos molekulyar xususiyatlari tufayli dengizlar quruqlikka qaraganda sekinroq isiydi va soviydi. Shuning uchun yerni eng issiq va eng suvoq joylardagi haroratning farqi 140 darajani tashkil etadi. Dengizda esa ushbu korsatkich 15-20 daraja chegarasidadir. Xuddi shunday farq kunduzgi va tungi haroratlar o'rtasida ham kuzatiladi. Quruqlikning chol hududlarida haroratlarning farqi 20-30 darajani tashkil qiladi. Dengizni esa bir necha darajadan oshmaydi. Nafaqat dengizlar balki atmosferadagi suv bug'lanishlari ham yerdagi iqlimni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Natijada suv biglanishi miqdori juda ham kam bo'lgan chollarda kunduzgi va tungi haroratlarning bir biridan farqi maksimal darajada, dengiz iqlimli mintaqalarida esa farq solishtirib bo'lgan darajada kichik boladi.

Xulosa

Agar dunyoda suv quruqlikdan kam bolganida sayyoraning katta hududlari chollarga aylansrdi, harorat bir muncha katta bo'lib umuman yashab bolmas edi. Biroq suvning nafaqat fizik balki kimyoviy xususiyatlari ham hayot talablariga ideal darajada mos keladi. Avvalombor, suv juda katta erituvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, deyarli barcha kimyoviy moddalar suvda erishi mumkin. Buning natijasida foydali minerallar va yerdagi boshqa moddalar suvda erib daryolar orqali dengizlari o'tadi. Har yili dengiz hayoti uchun zarur 5 milliard tonna turli moddalar dengizlarga kelib tushadi. Olimlar o'z tadqiqotlarida suvning hayot ehtiyojlariga g'aroyib darajada mos kelishning yangidan-yangi qirralarni ochib kelmoqdalar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammdsodiq Muhammdyusuf. "Qur'on va sunnatdagi ilmiy mo'jizalar" 2020
2. Xanmagomedov X.L., Maxacheva S.Z., Gebekova A.N. Ekologicheskaya toponimika Severnogo Kavkaza // Tez.dokl. konf. po itogam geogr. issledovaniy v Dagestane. Вып. 24. Maxachkala: Izd-vo geogr. o-va Dagestana, 1993.
3. Xanmagomedov X.L., Mujaidova D.Sh. Toponimiya, mineralno-сыревые ресурсы i etnoekologiya // Gosudarstvennoye regulirovaniye ekonomiki v usloviyax rynka. Ch. 1. 2000.
4. Xolikov R.I. Izmeneniye landshaftov Ferganskoj doliny pod vliyaniem xozyaystvennoj deyatel'nosti cheloveka. Dis. kand.geogr.nauk.-L.: LGU, 1989.
5. Xomidova G.M., Murodov M.Z. Ekologik ahloq. Farg'ona.: "Farg'ona nashryoti", 2008 y.
6. Халматова, Ш., & Махсудова, Г. (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(5), 356-362.
7. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, August). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY: <https://doi.org/10.47100/conferences.vlii.1365>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).
8. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, July). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY. In Конференции.
9. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. Theoretical & Applied Science, (8), 73-76.
10. Akhmedova, D. M., & Maxsudova, M. G. (2021). The role of moisture as an ecological factor in growth of cotton plants. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1093-1098.
11. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). Morphology of the pollen of some cotton species and hybrids. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 84-87.
12. Abdullayeva, M. T. L., & Maqsudova, G. M. (2021). EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 159-165.
13. To'lanovna, A. M., & Maxammadjonovna, M. G. (2021). EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA.
14. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. Theoretical & Applied Science, (8), 73-76.